
Tashabbuskor yoshlardan - yangi g'oya va takliflar

Bilasizmi? Inson hayoti davomida unutilmas davrlardan biri bu maktabda o'qib, bilim olgan damlari bo'lsa kerak. Shu davrlar yodimga tushgan zahoti o'zim tamomlagan 10-umumta'lim maktabi sari oshiqaman. Hozirda yangi g'oya va takliflarim ustida ishlab, ushbu maskandagi yoshlar bilan baham ko'rib, tahlil qilib kelmoqdaman.

Bugungi kunda biz yoshlar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar ham cheksiz samodek bilsangiz!

Ziyo maskaniga kirar ekanman e'tiborimni mo'jaz, o'z maqsadlari yo'lida olg'a qadam tashlayotgan yoshlar gavjum xona tortdi. Ustozlarim o'rgatganlaridek, o'z tajribalarimdan kelib chiqqan holda ukalarim va singillarim bilan kichik suhbat tashkil etdik. Maktabning tashabbuskor yoshlari bilan turli loyihalar ustida fikr almashdik.





Uchrashuv davomida yoshlarning takliflari qabul qilindi. Ular quyidagicha:

- maktabning kirish qismida "Tavallud kun", "G'oya uchun" burchak tashkil etish,
- istiqomat qilib turgan hududimizdagi siyosiy soha vakillari bilan "Sharhlar" vaqtini tayyorlash,
- IT sohasida o'qib izlanayotgan yoshlar bilan "Cltr+school" to'garaklarini tashkillash,
- hududimizdagi yosh sportchilar bilan "Sport time" kabi yangiliklarni tashkillashni maqsad qilib qo'ydik hamda bugundan buyon o'quvchi, yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlab, mahallamiz iftihorlarini ko'paytirishni o'z oldimizga muhim vazifa qilib qo'ydik.

Sardorbek ORIFOV,

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa

tuman kengashi matbuot xizmati xodimi

2019-10-12 15:49:50